

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI
KASB TA'LIMI KAFEDRASI
5112100 -MEHNAT TA'LIMI YO'NALISHI
407-GURUH TALABASI**

Yo'ldasheva Sayyoraning

**“9-sinfda kasb tanlashga yo'llash bo'limga oid
darslarni tashkil etish.” mavzusidagi**

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

dots. Akramov X.

Namangan – 2015

Fizika matematika fakul'teti
Kasb ta'limi kafedrası
Mthnat ta'limi yo'nalishi talabalarining
«Mehnat ta'lim metodikasi»
fanidan kurs ishi himoyasi yuzasidan

BAYONNOMA № _____

«___» _____ 2015 y.

Namangan shahri

Guruh _____ 407 Mehnat ta'limi _____
Talabani ismi sharifi _____
Kurs ishi mavzusi _____

Talabani ilmiy raxbari _____

1. HIMOIYAGACHA KURS ISHINING BAXOLANISHI

Kurs ishiga ko'yilgan ball _____ ilmiy raxbar imzosi _____

2. HIMOIYA DAVRIDAGI MA'RUZASI UCHUN

Xay'at raisi dots. X.Akramov	_____ maks ball 10	ball _____ mzo _____
Xay'at a'zosi o'q. Sh.Xudoyqulov	_____ maks ball 10	ball _____ imzo _____
Xay'at a'zosi o'q. A.Ismatov	_____ maks ball 10	ball _____ imzo _____

3. HIMOIYA YUZASIDAN SO'RALGAN SAVOLLAR

- | | |
|----------|------------|
| 1. _____ | ball _____ |
| 2. _____ | ball _____ |
| 3. _____ | ball _____ |
| 4. _____ | ball _____ |
| 5. _____ | ball _____ |
| 6. _____ | ball _____ |

Xar bir javob maksimal 5 balldan baholanadi

4. TALABANING YAKUNIY BAHOSI

Himoiyagacha tuplagan ballari (maks ball 40)	_____
Himoiya vaqtidagi ma'ruzasi uchun ballari (maks ball 30)	_____
Himoiyada tuplagan ballari (maks ball 30)	_____
Umumiy yig'indi ballar (maks ball 100)	_____
<u>Kurs ishi ilmiy raxbari</u> _____	

Izox: Eng yuqori ball 100 ball. SHundan **40** ball matn, mazmun, rasmiylashtirish uchun raxbar tomonidan qo'yiladi. Talabani himoiya vaqtidagi ma'ruzasi uchun **30** ball mavzuni mohiyatini yoritilishi, nutqi, vaqt, **30** ball talabaga berilgan savollarga javobiga xay'at a'zolari qo'yadi.

Tasdiqlayman: Kafedra mudiri.

” ” 20__y.

Kafedra _____

Kurs ishi.

Kurs bo'yicha

Guruh _____ Talaba _____

Rahbar _____

TOPSHIRIQ

1. Kurs ishi mavzusi: _____

2. Boshlang'ich ma'lumotlar: _____

3. Qo'llanmalar: _____

4. Chizma qismini tuzilishi: _____

5. Kurs ishining tuzilishi: _____

6. Qo'shimcha topshiriq va ko'rsatmalar: _____

7. Kurs ishini topshirish davri:

Bosqichlar					Ximoya
1	2	3	4	5	
8	8	8	8	8	40

Reja _____ Amalda _____

9-sinfda kasb tanlashga yo`llash bo`limga oid darslarni tashkil etish.

REJA:

KIRISH

ASOSIY QISM

1. MEHNAT TA'LIMI JARAYONIDA KASB TANLASHGA YO'LLASH
 2. KASBGA YO'NALTIRISH BO'LIMLARI
 3. XUSUSIYATINI O'RGANISHDA KASBGA YO'LLASH
- FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

KIRISH

Mamlakatimizning nurli kelajagi har birimizga, har birimizning mehnatimizga bog'liq (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari asosida). "O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eng avvalo, "shok terapiya" deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik", deyiladi risolada. O'zbekiston "Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmag" degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqish amalgam oshirish yo'lini tanladi. Eng muhimi, parokandalik va boshboshdoqlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun o'tish davrida aynan davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini aniq belgilab olindi.

Shu o'rinda O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz.

Mamlakatimizda birgina tijorat banklarining aktivlari miqdori 13 trillion 360 milliard so'mdan oshadi.

Aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib boorish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlar ham izchillik bilan amalgam oshirilmoqda. Bu esa el-yurtimizning farovonligini yuksaltirish, aholining xarid qobiliyatini oshirishni ko'zda tutadigan eng muhim ustivor maqsadlarimizga to'la mos keladi.

O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi ekan dunyoda kechayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning O'zbekistonga ta'siriga qarshi chora-tadbirlarni ko'rish davr talabidir. Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar

dasturi O'zbekistonni 2009, 2010-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustivor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Xozirgi davrda xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida yanada rivojlantirish-ustivor vazifa bo'lib qoladi.

Bundan kelib chiqib biz umumta'lim maktablaridagi o'qubchilarni mehnat ta'limi darslarida kasb tanlashga yo'llash ishlarini yanada kuchaytirishimiz, dars samaradorligini oshirishning zamonaviy usullarini hayotga joriy etishimiz darkor bo'ladi.

Prezident I.A.Karimov 2009-yilning 29-yanvarida 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza qildi. Bu ma'ruzada I.A.Karimov jahon moliyaviy-iqtisodiy-inqirozi chuqur tus olgan bir sharoitda o'tgan 2009-yil yakunlarini tanqidiy baholab va shu asosda 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlarini belgilab olishimiz kerakligini ta'kidlab o'tdi. O'tgan 2009-yilda bir talay muammolarga duch kelindi. Jumladan, eski ma'muriy-buyruqbozlik, taqsimlash tizimidan bozor munosabatlariga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tish, O'zbekiston hukumati 2009-2012-yillarga mo'ljallab qabul qilgan Inqirozga qarshi dastur bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarga yordam ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini berdi.

Kasb tanlashga yo'llash: kasblar tasnifi, kasblarda mehnat turlarining (odam-tabiat, odam-texnika, odam-odam, odam-belgili tizim, odam-badiiy obraz) ta'rifi, kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablarni, o'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini, akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining yo'nalishlari, ularning bir-biridanfarqi,umumiyyomonlarini, o' quvchi yoshlarnikasb-hunarga yo'naltirish tizimini bilish.

MEHNAT TA'LIMI JARAYONIDA KASB TANLASHGA YO'LLASH

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi fanini o'qitishning maqsadi - o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko'nikmalari va malakalarini, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish, ularni mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o'rgatish hamda kasb tanlashga tayyorlash orqali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi:

Ta'limiy vazifa - o'quvchilarning barkamol bo'lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar, umumiy texnologiya, texnika va ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini o'rgatish, ularni kasb tanlashga yo'naltirish, kamida uchta kasb bilan dastlabki tanishtirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish va kasb-hunar kollejlari ta'lim olishga tayyorlashdan iborat.

Tarbiyaviy vazifa-o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va tadbirkorlikni rivojlantirib borishdan iborat.

Rivojlantiruvchi vazifa-mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy-estetik tarbiya va ta'lim berish, kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish orqali ularning barkamol bo'lib ulg'ayishlariga yordam berishdan iborat.

Mehnat ta'limi fanining mazmuni shartli ravishda uchga, ya'ni mehnat ta'limi tayyorgarligi, kasblar bo'yicha tayyorgarlik va kasbgacha maxsus tayyorgarlik qismlariga bo'linadi. Bu qismlar har bir dars va mashg'ulotlarning tarkibiga singib ketgan bo'lib, ularning o'qituvchilar va uslubchilar tomonidan ilmiy uslubiy nuqtai nazardan hisobga olingan holda tahlil qilib borilishi mehnat ta'limi mashg'ulotlarining aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlaydi.

Maktabda mehnat ta'limi va tarbiyasi, kasbga yo'naltirish jarayonini tashkil qilish hamda uni amalga oshirishda pedagogika, didaktika, psixologiya,

fiziologiya, xususiy metodika va maxsus fanlarning ilmiy xulosalaridan keng foydalanish ko'zda tutilgan. Mashg'ulotlar mavzusini amaliyot bilan, o'quv mazmuni tarbiyaviy miammolarni hal qilish bilan uyg'unlashtirilgan holda bo'lishini ta'minlaydi.

Turli mashinasozlik korxonalarining va metalga ishlov beriladigan korxonalarning faoliyatini o'rganish kasb-malaka tasnifida quyidagilar nazarda tutilishini ko'rsatadi:

- a) ishlab chiqarishning umumiy xarakteristikasi;
- b) tegishli malakaga ega bo'lgan ishchining jismoniy va axloqiy faoliyatidan iborat asosiy mehnat vazifalari;
- v) kasbkorlik va texnikaga doir bilimlar hajmi;
- g) maxsus bilimlar.

Kasb-korlik malakasi tasnifini alohida korxonani emas, balki sanoatning barcha tarmoqlari ehtiyojini nazarda tutgan holda ko'rib chiqamiz. Bundan tashqari, metal va unga ishlov berish texnologiyasida o'xshash kasblarni, kuzatuvchi - chilangarlar, elektr payvandchi, elektromontyor kasbini ayrim dastgohchilik ixtisosliklarini (tokarlik, parmalovchi, frezalovchi, sozlovchi) ham o'rganishlarini hisobga olamiz.

a) ishlab chiqarishning umumiy xarakteristikasi:

1. Ishlab chiqarishning asosiy vazifalari.
2. Ishlab chiqarishdagi asosiy mahsulotlarning qisqacha ta'rifi.
3. Xizmat ko'rsatish va tizatish obyektlari (zavodning oddiy uskunalari, uzellar, agregatlar, mashinalar, moslamalar, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlarshtirish vositalari, kuch qirilmalari).

b) Asosiy mehnat vazifalari hamda aqliy va jismoniy mehnat malakalari:

1. Murakkabligi o'rtacha chizmalarni o'qish.
2. Ish o'rnini tashkil etish.
3. Ish vaqtini rejalashtirish.
4. Havfsiz mehnat sharoitini ta'minlash.
5. Chilangar va nazariy-ilchov asboblarini qo'llash qoidalarini bajarish.

6. Havfsizlik texnikasi va yong'inning oldini olishga doir instruktsiya hamda qoidalarni bajarish.

Ushbu bilimda bulardan tashqari tuzatiladigan uskunalarni qismlarga ajratish va yig'ishni, quyidagi chilangar ishlarini bajarishni ham nazarda tutiladi:

- yuzalarni rejalash;
- metallarni tekislash va bukish;
- metallarni qirqish va egovlash;
- parmalash;
- teshiklarni rejalash;
- zenkovkalash, parchinlash;
- shaberlash, silliqlash, kavsharlash.

Bunga nazorat ilchov asboblari va priborlardan foydalanish, elektromontyor, dastgohchi va nazoratchi bilan birgalikda ishlash kirmaydi.

v) Kasb-kor texnika bilimlar hajmi.

Materialshunoslik bo'yicha metallar haqida ma'lumotlar, metallarning fizik, kimyoviy va mexanik xossalari, cho'yan va po'latning xossalari, po'latning markalari, metallarning korroziyalanishi, quyish ishlab chiqarilishi, qattiq qotishmalar va ularni qo'llash, metallarga ishlov berishning asosiy turlari. Nometal materiallar va ularning mashinasozlikda qo'llanilishi.

Dopusk va texnik o'lchashlar bo'yicha: detallarning o'zaro almashinishi, nometal, haqiqiy va oxirgi o'lchashlar, dopusk va aniqlik klasslari, teshiklar sistemasi va val sistemasi, ilchov asboblari va priborlari, o'lchashdagi xatoliklar, ularning oldini olish usullari. Detallar sifatini nazorat qilish metod va usullari.

Texnik mexanika bo'yicha harakat turlari, kuch va ishqalanish haqida qo'shimcha mexanizmlar, eng oddiy yuk ko'tarish qurilmalari haqida tushuncha, mashinalardagi kuchlarni o'lchash metodlari.

Elektrotexnikadan ma'lumotlar, o'zgarmas tok haqida tushuncha, o'zgaruvchan tok haqida tushuncha, o'zgarmas va o'zgaruvchan tok olish, texnik quvvat, elektr o'lchashlar va priborlar, asinxron dvigatellarning tuzilishi va ishlashi, elektr asboblarning "yulduz" va "uchburchak" sxema bo'yicha ulanishi.

Chizma va sxemalarni o'qish: chizmalarda sxemalarning joylashuvi, ma'lumotlar bo'yicha etishmaydigan projektsiyalarni yasash, aylanani bo'laklarga bo'lish usullari, eskizlar tuzish, burchaklar yasash va ularni bo'lish.

g). Maxsus bilimlar.

1. Umumiy chilangarlik ishlari.

- rejalash turlari va qo'llanadigan asboblar;
- metalni yo'nish, qo'llanadigan asboblar, yo'nishning to'g'ri usuli;
- metall listni tekislash va bukish, qo'llanadigan asboblar, tekislash va yo'nish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish;
- metallarni qirqish, qo'llanadigan asboblar, metallarni qirqish yo'llari va usullari;
- egovlash turlari, egovlashning oqilona usullari, qo'llanadigan asboblar va malakalar, egovlash sifatini nazorat qilish;
- parmaning vazifasi, parmalash usullari va qo'llanadigan asboblar;
- zenkovkalashning mohiyati, zenkovkalashda qo'llanadigan asboblar;
- teshiklarni moslashtirishning mohiyati va vazifasi;
- rezbalarning turlari va vazifalari, rezba ochishning usullari va qo'llanadigan asboblar, rezba ochishni mexanizatsiyalashtirish;
- shaberlash, silliqlash, parmalash;
- siqish va bo'shatish.

2. Oddiy uskunani yasash va tuzatish:

- asosiy uskunaning vazifasi, tuzilishi va ishlashi;
- uskunaning texnik tasnifi;
- asosiy dastgohlar va mexanizmlarning kinematik sxemalarini o'rganish;
- tipovoy uzellarni tuzatishning texnologik jarayonlari haqida asosiy ma'lumotlar.

3. Iqtisodiy bilimlar. U yoki bu ixtisoslikni egallagan ishchilarning iqtisodiy tayyorgarligi, iqtisodning asoslari ishchi uchun juda ko'p ishlab chiqarish masalalarini hal qilish imkonini beradi. Ishchi o'zining ixtisosligidan qat'iy nazar quyidagilarni bilishi lozim:

- sex, uchastka va alohida ishchining ishni rejalashtirishdagi asosiy masalalari;
- texnik mehnatni normalashtirish;

- xo'jalik hisobi;
- rentabellilik;
- ish haqi;
- mukofotlash va rag'batlantirish sistemasi;
- ishlab chiqarish korxonasi nizomi.

Chilangar-tuzatuvchi ixtisosini egallagan ishchi maxsus bilimlardan quyidagilarni o'rganishi kerak:


- uskunalarning tuzilishi, ishlash va tuzatilishi;
- havfsizlik texnikasi masalalari va yonginga qarshi tabdirlar.

Ushbu kasb-korlik malaka tasnifi va o'quv-metodik xujjatlarni (dasturlar, o'quv rejalari va shu kabilarni) ishlab chiqishga mo'ljallangan emas.


Mazkur tasnifga chilangar-tuzatuvchi ixtisosligi asos qilib olingan bo'lsada, amalda undan o'qituvchi metal va unga ishlov berish texnologiyasi ixtisosliklari gruppasidagi kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda foydalanishi mumkin. Mehnat ta'limining 8-9-sinflarida yuqorida qayd etganimizdek, "Ishlab chiqarish asoslari va kasbga yo'naltirish" kursi davlat ta'lim standarti, dasturlar asosida o'qitiladi.

Nazorat uchun savolar:

1. Ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalar tarkibida kasbga yo'naltirish haqida qanday fikrlar bildirilgan?
3. Kasb tanlashga yo'llash tashkiliy va uslubiy masalalarga nimalar kiradi?
4. Kasb-malaka tasnifi tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
5. O'qituvchi, kasb tanlashga o'quvchilarni yo'naltirish ishlarida kasb-korlik malakasi tasnifidan qanday foydalanadi?



O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH TIZIMI



KASBIY DIAGNOSTIKANING MOHIYATI VA USLUBLARI

O'quvchi shaxsini har tomonlama psixologik-pedagogik o'rganish davomida u bilan birga kasb tanlashga tayyorlashning oqilona yo'llarini topish kerak. Bu jarayon o'quvchiga maktabda ta'lim berilayotgan dastlabki yillarda maxsus dastur

bo'yicha amalga oshirilishi lozim.

O'quvchilar shaxsini o'rganish uning hamma jihatlarini: yo'nalishi, qobiliyati, xarakteri, temperamentini qamrab olishi zarur.

Yo'nalish hayotning nurli tomonlariga shaxsning munosabatlarini, uning ma'naviy-axloqiy xislatlarini birlashtiradi. U bevosita tabiiy asosga ega emas, balki tarbiya jarayonida shakllanadi. U qiziqishlar, moyilliklar, e'tiqod, niyatlarni o'z ichiga oladi.

Pedagog o'quvchilarda kasb faoliyatiga qiziqish borligi to'g'risida ularning biror bilim sohasini tanlab mo'ljallanayotganligi, uning predmet tomoni muayyan kasb faoliyati sohasiga ijobiy emotsional reaksiyasiga qarab hukm chiqarish mumkin.

Moyillik deganda o'quvchining tanlayotgan sohasiga munosabati o'zgarmasligi, konkret amaliy faoliyatga intilishi (kuch sinab ko'rishi) tushuniladi. O'quvchining o'z tashabbusi bilan o'quv faoliyati, sinfdan tashqari ishlarda hammadan ko'proq qiziqib shug'ullanishiga qarab moyilliklari to'g'risida hukm chiqariladi.

Kasbiy niyatlar deganda shaxsning konkret kasb egallash va tegishli ma'lumot olishga qat'iy intilishlari tushuniladi.

Shaxsning yana bir jihati qobiliyatidir. Psixologiyada qobiliyatlar shaxsning individual-psixologik xususiyatlari sifatida ta'riflanib ancha samarali mehnat faoliyatining sharti hisoblanadi. Faoliyat muvaffaqiyatli va o'ziga xos tarzda olib borilayotgan bo'lsa, yangi bilim va ko'nikmalar tez o'zlashtirilayotgan bo'lsa, qobiliyatlar bor ekan deyiladi. Qobiliyatlar mehnatda shakllanib boradi.

Odamning psixik xususiyatlarini jami, atrofdagi hayotga psixik reaksiyasining individual tipi xarakter hisoblanadi. U odam o'ziga, boshqa kishilarga, topshirilgan ishga, buyumlarga qanday munosabatda bo'lishida namoyon bo'ladi. Xarakter shaxsning tug'ma xislati emas, u odamlarning faoliyati sharoitida shakllanadi va tarbiyaga bog'liq bo'ladi.

Temperament odam psixik jarayonlarining kechishi dinamikasini bildiradi. Uning fiziologik asosi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchliligi yoki

zaifligi, vazminligi, harakatchanligi yoki sustligi bilan xarakterlanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, temperament tug'ma xislatlar bilan belgilangan bo'lsada, individning butun hayoti davomida o'zgarmas bo'lib qolmaydi. Har qanday temperament shaxsning butun ijtimoiy ahamiyatli xislatlarining rivojlanishiga monelik qilmaydi, Biroq har bir temperament shakllanishning o'ziga xos yo'l va usullarini talab qiladi. Temperament, shuningdek, o'smir shaxsining o'ziga xos rivojlanishidagi shartlardan birini tashkil etadi.

Shaxsning hamma jihatlari maktabda psixologik-pedagogik metodlar yordamida o'rganiladi.

Shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini diagnostika qilish kompleks metodlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- dars va sinfdan tashqari ishlarda kuzatish;
- individual suhbatlar;
- differentsial-diagnostik so'rov (rus olimi E.A.Klimovning differentsial-diagnostik so'rovi bo'yicha).

Mazkur metodlar yordamida olingan hamma ma'lumotlar "Kasb maslahati kartasi"da umumlashtiriladi. Kartada maxsus ajratib ko'rsatilgan parametrlar bo'yicha o'quvchining shaxs xususiyatlari qayd qilinadi. Qaysi qiziqishlari, turg'un xarakter xususiyatlari ko'pligiga o'qituvchi kasb tanlashda o'quvchining yo'nalishi to'g'risida dastlabki xulosani chiqaradi.

Kuzatish doimiy olib boriladi. O'quvchi bilimlarining muayyan sohasiga bo'lgan o'z qiziqishi va moyilliklarining rivojlantirishi borasida harakatlari borligi yoki yo'qligi, uning kasb tanlash muammolari muhokama qilinayotgan paytdagi faolligi, o'quv va ijtimoiy foydali ishda umumiy mehnat ko'nikmalarini namoyon etishi hisobga olinadi.

Situativ bilish va kasbga qiziqish o'rganishga beqaror munosabat sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni o'quvchi biror ishni asosan o'qituvchi yoki ustaning bevosita nazorati ostidagina bajaradi. Unda analiz, sintez va umumlashtirish ko'nikmalari ko'rinmaydi, iroda kuchi rivojlanmagan bo'ladi, o'quvchi o'zining kelajakdagi kasbiga loqayd qaraydi, kasbiy faoliyat uchun zarur bilim, ko'nikma

va malakalarni o'zlashtirishga ehtiyoj sezmaydi hamda intilmaydi. Unda faqat eng oddiy amaliy ishlarga, asosan, tasodifiy va qisqa muddatli qiziqish namoyon bo'ladi. Odatda o'quvchi dars davomida (xususan, nazariy mashg'ulotlarda) passiv, tashabbussiz bo'ladi, pedagogning, guruhdagi o'rtoqlarining ijobiy bahosiga sazovor bo'lish uchun harakat qilmaydi, pedagogning faoliyatga da'vatidan yetarli darajada ta'sirlanmaydi. Unda emotsional jo'shqinlik sezilmaydi va u vaziyatga bog'liq holda imtizomsizlikka yo'l qo'yadi.

Beqaror bo'lish-kasbiy qiziqish u yoki bu o'quv faniga, faoliyat turiga yetarli darajada qiziqmaslik, kasbni egallash uchun nazariy bilimlarning rolini yaxshi bilmaslik, o'zining bilim va ko'nikmalariga ishonmaslik bilan ifodalanadi. Qiziqish bir faoliyat turidan boshqa faoliyat turiga go'yo ko'chib yuradi.

Bunday o'quvchilar ijobiy baho olishga tirishadilar, lekin buning uchun yetarlicha kuch sarflashga harakat qilmaydilar, ortiqcha kuch sarflamay, muayyan natijalarga osongina erishiladigan amaliy faoliyatga qiziqadilar. Shuningdek, ular mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlikni talab qiladigan ishlarni yoqtirmaydilar, o'zlarining bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga ehtiyoj sezmaydilar. Darsda, ustaxonada, guruhda sodir bo'lgan voqealarga o'z munosabatlarini yetarli darajada bildirmaydilar. Ularning nazariy mashg'ulotlarga befarq qarashlari yaqqol ko'rinadi va shu bilan birga ular o'quv ustaxonalaridagi ishlarga ma'lum darajadagina qiziqadilar.

O'quvchilardagi barqaror bilim-kasbiy qiziqish uning barcha komponentlari asosli-extirosli, xususiy-kasbiy, aqliy, irodali qiziqishlar yetarlicha shakllangani bilan farq qiladi.

Mana shu toifaga kiradigan o'quvchilar o'zlarining kelajakdagi kasbkorlik faoliyatlari uchun eng muhim kasblar turkumidagi fanlarni, o'zlari uchun eng qiziqarli faoliyat turlarini yaxshi biladilar. Nazariy va ishlab chiqarish ta'limi darslarida faollik, mustaqillik ko'rsatadilar, pedagog qo'ygan maqsadga erishish uchun astoydil harakat qiladilar, o'z ishlarining natijalariga va ularning pedagog tomonidan qanday baholanishiga doimo qiziqadilar, o'qituvchiga murojaat etib, undan yordam so'raydilar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda qat'iyatlilik

ko'rsatadilar.

Qo'yilgan talablarni qiyin-qistovsiz bajaradilar, intizomsizlikka yo'l qo'ymaydilar.

Ongli bilim kasbiy qiziqishning yaqqol ifodalanishi, o'rganilayotgan kasbga chinakam berilish bilan ifodalanadi.

Bunday toifadagi o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini mukammal o'zlashtirishga intilishlari, nazariy bilimlarni egallash uchun astoydil va qat'iy harakat qilishlari bilan ajralib turadilar.

Mazkur o'quvchilarning ta'lim olishdagi yetakchi motivlari o'rganilayotgan kasb bo'yicha yuqori malakaga erishish zarurligini anglashdir, shuningdek, ular o'z tengqurlaridan yuksak darajadagi aqliy malakalari, qiziqish doiralarining kengligi, mustaqillik va ijodkorlik ko'rsatishga intilishlari bilan farqlanadilar. Ularning darsdagi bilish faolligi yaqqol ko'rinadi. Bunday o'quvchilar mehnat natijalarini baholash mezonlarini ham aniq biladilar. Ko'pincha o'qishda, va ishdagi yaxshi natijalarga erishadilar. Ulardagi bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarning hajmi, saviyasi kasb va malaka razryadi talablariga javob beradi.

Ehtiyoj, bilish, kasbiy qiziqish tarkib topishi jarayonining natijasi sifatida vujudga keladi. Ehtiyoj o'rganilayotgan kasb bilan bog'liq faoliyatga moyillikda namoyon bo'ladi. Shuningdek, mehnatga kasbiy va psixologik jihatlardan tayyorgarlik darajasini ifodalaydi. Darsda hosil bo'lgan bilish-kasbiy qiziqishning belgilari o'quvchilardagi qiziqishning u yoki bu darajasini aniqlashda, ana shu qiziqishning dinamikasini kuzatish, shaxsning tashqi o'zgarishlarini qayd etib borish imkonini beradi. O'quvchilarni yanada chuqurroq o'rganish uchun boshqa metodlardan ham foydalaniladi.

Anketa tarqatish. Anketa yordamida o'quvchilarning ko'proq nimalarga qiziqishi va moyilliklari, kasbga oid intilishlari, o'z individual xususiyatlarini bilishi, kasbga oid mo'ljallari aniqlanadi.

Ota-onalar uchun anketalar mazmuni bolalarining nima bilan qiziqishini bilishi, ota-onalar ularning qobiliyatlariga qanday baho berishi, uy-ro'zg'orda qanday darajada qatnashishi, shuningdek, ota-onalarning o'z farzandlari kasb

tanlashidagi rolini aniqlashga qaratilgan.

Suhbat anketa tarqatish va kuzatish paytida olingan ma'lumotni aniqlab olish va to'ldirish uchun kerak. Suhbatda o'quvchining kasbiy niyati, qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari, xarakter xususiyatlari, kasb yo'lini tanlashga bundan keyingi tayyorlanish yuzasidan maslahat va tavsiyalarga xozirligini aniqlashga asosiy e'tibor beriladi.

Kasbga yo'naltirish bo'yicha olib boriladigan ish pedagog va vrachning, albatta, birgalikda ish ko'rishini nazarda tutadi. Maktab o'quvchilari tanlayotgan kasbga ularning sog'ligi to'g'ri keladimi-yo'qmi ekanligini oldindan bilishlari kerak.


Salomatlik to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Kasallik yo'qligi to'g'risida xulosa;
2. Surunkali kasalliklar mavjudligi;
3. Muayyan kasblarga to'g'ri kelmaydigan kasalliklar ro'yxati.

Differentsial-dagnostik so'rov qog'ozidan o'quvchilar qaysi kasb faoliyati sohasini tanlashini aniqlash uchun foydalaniladi. U inson mehnat faoliyatining turli sohalari to'g'risidagi 20 ta savolni o'z ichiga oladi.

Nazorat uchun savolar:

1. Yo'nalish qanday xislatlarni o'zida birlashtiradi?
2. Qiziqishni qanday bilimlar orqali aniqlash mumkin?
3. Moyillik, niyat va qobiliyatning o'zaro bog'liqligi nimada?
4. Xarakter va temperamentning kasb tanlashdagi ahamiyati qanday?
5. Qanday metodlardan foydalanib diagnostika ishlari amalga oshiriladi?
6. Kasb maslahati kartasida qanday ma'lumotlar aks ettiriladi?
7. Suhbat qanday maqsadlarda o'tkaziladi?
8. Shaxsning kasbga moslashuvi deganda nimani tushunasiz?



KASBLAR XUSUSIYATINI O'RGANISHDA KASBGA YO'LLASH

O'quvchilarni kasblarning xususiyatlari bilan amaliy tanishtirish uchun mehnat ta'limi dasturida ko'rsatilgan ta'lim mazmuni yo'nalishlarining har bir gruppasidan bittadan ixtisosni ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu ixtisoslar mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ta'limi bo'yicha kasblarning beshta tipidan uchtaga taalluqli bo'lishi lozim. Masalan, metall va unga ishlov berish texnologiyasi (odam-texnika) mashinasozlik chizmachiligi (odam-belgilar sismavzusi) savdo xizmat ko'rsatish (odam-odam). Bu uchta ixtisosdan har biri bilan tanishish uch bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqich-o'quvchilarni mazkur ixtisoslik bo'yicha turli ish o'rinlari (individual, jamoa va shu kabilar), ularni tashkil qilish, jihozlar va uskunalar; mazkur ixtisoslikdagi turli ishchilar foydalanadigan mehnat qirollari texnik mehnat mahsulotlari (buyumlarning turlari) bilan tanishtirish.

Bu bosqichda materialni og'zaki bayon qilish metodlari (tushuntirish, hiqoya qilish, suhbat o'tkazish), shuningdek, texnik obyektlarni ko'rsatish yetakchi metodlari hisoblanadi. Materiallardan foydalanib, o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etilishi mumkin (avvalo, bir gruppaga ixtisoslari bo'yicha) qo'llanadigan yozma instruktsiya o'quvchilarni asbob-uskunalarining texnik-iqtisodiy xarakteristikalarini, ularni ishlatish usullari bilan tanishtirish, o'lchovlarini bajarish va shu kabi topshiriqlarni o'z ichiga olishi kerak. Quyida misol tariqasida instruktsiya kartasining namunasi keltiriladi.

16K20 tokarlik-vint qirqish dastgohini o'rganish amaliy ishi uchun instruktsiya kartasi.

Maqsad. Dastgohning tuzilishini o'rganish va uning eng muhim texnik xarakteristikalarini aniqlash.

Jihozlar va asboblari. 16K20 dastgohi, uning texnik pasporti, chilangarlik chizg'ichi.

Asosiy texnik ma'lumotlar. Dastgoh turli tokarlik va rezba qirqish ishlarini bajarishga, donalab va seriyalab ishlab chiqarish sharoitida materiallarni tez qirqishga mo'ljallangan.

Ishni bajarish tartibi.

1. Pasport yordamida stanokdagi uzatmalar qutisi, oldingi va keyingi babkalarni, support, patron, yurgizish vinti, yurg'izish valini topish.

2. Dastgohdagi boshqarish organlari izatish qurilmalarining tutqichini yoki qirqiladigan rezba qadamini shpindelning aylanish chastotasi orqali boshqarish, supportning ko'ndalang va yuqori salazkalarini qo'l bilan surish, uzatishni ulash va ajratish, pinolni, keyingi babkani boshqarish; yurgizish shturvali bosh yuritma elektrodvigatelini ulash va ajratish knopkalarini boshqarishning elektr pultini topish.

3. Quyidagilar aniqlanishi kerak:

- a) elektrodvigatel quvvati (pasport bo'yicha);
- b) shpindelning aylanish chastotalari soni (pasport bo'yicha);
- v) shpindelning aylanish chastotasining oxirgi qiymati (pasport bo'yicha);
- g) ishlanayotgan homashyolarning eng katta diametri: dastgoh tepasida, supportning ko'ndalang salazkalari ustida tekshirish;
- d) markazlar o'rtasidagi masofa;
- e) boshqarish tutqichining berilgan holatida shpindelning aylanish chastotasi.

Tekshiruv savollari:

- 1. Metalga tokarlik ishlov berish asosida qanday fizik qonunlar yotadi?
- 2. Oldin o'rganilgan (5-7-sinflarda) dastgoh bilan bu dastgohning

o'xshashligi va farqi nimada?

3. Dastgohdagi asosiy texnik jarayonlarini aytib bering. Bu dastgoh qayerda ishlatiladi?

4. Maktab dastgohini boshqarishning asosiy uzellari va organlari vazifasini tushuntirib bering.

Ikkinchi bosqich - o'quvchilarni mazkur ixtisoslik kasblari uchun tipik bo'lgan asosiy operatsiyalar bilan tanishtirish. Bunda tashkiliy namoyish metodlaridan texnologik operatsiyalarni, mehnat xarakterlarini, qator tipik operatsiyalarni bajarish usullarini ko'rsatishdan keng foydalaniladi. Masalan, "Metal va unga ishlov berish texnologiyasi" ixtisosligi uchun ta'limiy namoyish o'quvchilarga parmalash stanogini boshqarish, detallarga ishlov berish (parmalash, teshiklarni parmalab kengaytirish, zenkerlash, moslamalar hamda mexanizatsiyalashgan asboblardan kengaytirish, tashqi rezba, ochiq yoki yopiq teshiklarda rezbalar ochish) usullarini; tokarlik yoki frezerlik stanoklarini boshqarish, silindrik yuzalarni silliqlash yoki yassi yuzalarni, to'g'ri burchakli yoriqlarni frezalash usullari va shu kabilarni.

"Savdo xizmati ko'rsatish" ixtisosligi uchun sotiladigan tovarlar tayyorlash usullarini sifat va xokazolarini tekshirish, haridorga xizmat ko'rsatish usullarini (haridorga maslahat berish, tovarni olib berish va xokazolar), savdo asbob-uskunalarida (elektron tarozi, avtomatlarda va shu kabilarda) ishlash usullarining ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich. Har bir o'quvchining ixtisoslik bo'yicha elementar ishlarni bajarish (oldingi bosqichda ko'rsatilgan va o'quvchilarga tushunarli ayrim operatsiyalarni tadbiq qilgan xolla uchchala gruppadagi ixtisosliklar bo'yicha amaliy ishlarni o'quvchilarni mehnat havfsizligi qoidalari bilan tanishtirishda (zarur hollarda jurnalga imzo chektirib) boshlash kerak.

Ixtisoslik gruppalarining har biriga doir amaliy ishlarni tahliliy mazmuni o'rtasida qisqacha to'htalib o'tamiz.

1-gruppa. Amaliy ishlar mehnat ta'limi darajasida qo'llaniladigan asboblarga o'xshash asboblardan foydalanilgan holda qator oddiy operatsiyalarni

bajarishdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan: "Yog'och va unga ishlov berish texnologiyasi" ixtisosligi bo'yicha yog'ochda turum va quloqlar yasash, unga duradgorlik asboblari bilan ishlov berish (tolalari bo'ylab va ko'ndalangiga tilish, taxta, g'o'lalarni randalash) detallarni mix, turumlar va xokazolar bilan birlashtirish; "Metall va unga ishlov berish texnologiyasi" ixtisosligi bo'yicha yupqa metall listni qaychilar bilan kesish, moslamalarni qo'llab qo'l asboblari bilan bukish, xomashyolarni qirralarini, kesilgan joylarini burchaklarini egovlash; parmalash stanogida ochiq yoki yopiq teshiklarni parmalash, detallar va xokazolarga ishlov berish; "Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi" ixtisosligi bo'yicha furnituralar (knopkalar, petlyalar, ilgaklar, tugmalar)ni almashtirish, mashinada baxiya va buklama choklarni tikish, baxiya va qoplama choklar bilan buyumlar tikish.

2-gruppa. Amaliy ishlarni tashkil etishda shunday ishlar tanlanishi kerakki, ularni bajarish uchun o'quvchilar 5-7-sinflarda olgan ko'nikma, malakalari kifoya qilsin. Masalan, "Avtomobil ixtisosligi bo'yicha amaliy ishlar ayrim chilangarlik operatsiyalarini bajarishni o'z ichiga oladi. Bu operatsiyalar avtomobillarga xizmat ko'rsatish, ayrim mexanizm va detallarni ta'mirlash bilan bog'liq bo'lib, tozalash, detallarni ajratilgandan keyin yuvish va moylash, shablon asosida qistirmalar qirqish, rezbani to'g'rilash, ayrim detallarni moylash, ularni sortlarga ajratish, joriy (kundalik) texnik xizmat ko'rsatish (shinalar bog'lamini tekshirish, tortish va xokazolar) avtomobil agregatlari o'quv mexanizmini ajratish va yig'ish, maketlar tayyorlash va shu kabilardan iboratdir.

3-gruppa. O'quvchilarning amaliy faoliyati ishchilarning mehnat funktsiyalariga kiradigan, usta tushuntirib berganidan so'ng o'quvchilar bilib oladigan ayrim elementar ishlar va operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Masalan, savdo xizmati ko'rsatish ixtisosligi bo'yicha ularni sirtdan qarab chiqish, savdo zaliga tashish va joylashtirish narhi yozilgan qog'ozlar o'rnatish, savdo zali yordamchi xonalarini yigishtirish, ishga tayyorlash va boshqalar.

O'quvchilarning amaliy ishlari jarayonida instruktaaj o'tkaziladi, ish usullarini tushuntirish va ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Kirish va joriy instruktaajlar


mehnat ta'limi jarayonida o'tkaziladigan instruktajlarga o'xshaydi.

Yakunlanuvchi instruktajning mazmuni o'quvchilarning ishdagi individual qiyinchiliklarini ana shu qismidan iborat biladi.

O'quvchilarni kasb xususiyatlarini o'rganishda kasbga yo'llashning maqsadi o'quvchilarning ta'lim ixtisosligini tanlash niyatini aniqlashdir. O'quvchi bilan suhbat o'tkazish jarayonida o'qituvchi ularning ko'rib chiqilgan ixtisosliklar yoki ularga o'xshash ixtisosliklar bo'yicha bundan kenyingi ta'limga munosabatini bilib oladi. O'quvchilarga anketa (yozma savol)lar tarqatiladi. Bundan maqsad u yoki bu ixtisoslik bo'yicha o'qish niyatini aniqlashdir. O'qituvchi darsdan tashqari vaqtda ishlab chiqarish ta'limi ustalari bilan birga anketalarga olingan javoblarni analiz qiladi, ularni u yoki bu ixtisoslik bo'yicha ta'lim olish o'rinlari miqdori bilan taqqoslaydi.

Nazorat uchun savolar:

1. Ixtisosliklar bilan tanishish birinchi bosqichida qanday uslublardan foydalaniladi?
2. Instruktsiya kartasi qanday tartibda bo'ladi?
3. Ixtisosliklar bilan tanishish bosqichlarining bir-biridan farqi nimada?
4. Amaliy ishlar mazmuni necha guruppaga bo'linadi? Ularning bir-biridan ajralib turuvchi tomonlari nimada?



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A " O`zbekiston XXI asrga intilmoqda". Toshkent 2000 yil.
2. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". Toshkent "O`qituvchi" nashriyoti 1999 yil.
- 3.O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`qrisida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". Toshkent. 1997 yil. 29 avgust.
- 4.Olimov K.T., Uzoarva L.P., Jalolova D.F. Kasb-hunar ta`limida amaliy kunikmalarni urganish bosklchlari. "Kasbiy ta`lim muammolari" respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. - Samarkand; 2003y. 72-6.
- 5.Olamov K.T., Avliyoqulov N.X. Muammoli o`qitish texnologiyasi, "Kasbiy ta`lim muammolari" respublika ilmiy amaliy konferentsiyasi materiallari. -Samarkand: 2003. - 73-6.
- 6.K.Davlatov. Kasb va kasb ta`lim-tarbiyasidan amaliy mashg`ulotlar. O`qituvchi nashriyoti. Toshkent. 1995 yil.
- 7.Ishlab chiqarish asoslari. Kasb egallash kursi metodikasi. P.R.Atutov, V.A.Polyakov taxriri ostida. Toshkent., 1989 y.
- 8.Internet materiallari.